

“QORAQALPOQ-AGRO” ERKIN IQTISODIY ZONASINING HUDUIY  
JOYLASHUVI

Amanov A.K.

Urganch davlat universiteti, O‘zbekiston

**Аннотация:** В статье рассматривается размещение свободной экономической зоны «Каракалпак-агро» (далее СЭЗ) в районах Республики Каракалпакстан и возможности их дальнейшего развития. При кратком освещении темы были даны некоторые предложения и рекомендации с использованием методов экономико-географического анализа, работы со статистическими данными.

**Ключевые слова:** агро свободная экономическая зона, таможенные льготы, экстенсив, интензив, инвестиция, налоговые льготы.

**Abstract:** The article discusses the location of the "Qoraqalpoq-agro" free economic zone (hereafter SEZ) in the districts of the Republic of Karakalpakstan and the possibilities of their future development. In the brief coverage of the topic, some suggestions and recommendations were given using the methods of economic geographical analysis, working with statistical data.

**Key words:** agro free economic zone, customs benefits, extensive, intensive, investment, tax benefits.

**KIRISH.** Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda, shulardan biri qishloq xo‘jaligini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishga va pirovard natijada aholining turmish tarzining ma‘lum darajada yuksalishiga erishish maqsadida mazkur mintaqada “Qoraqalpoq-agro” EIZsini tashkil qilinishidir.

**ASOSIY QISM.** Mamlakatimizni iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish va yaqin kelajakda uni iqtisodiy qudratli mamlakatlar qatoriga olib chiqish mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish hamda, zamon bilan hamnafas rivojlanishni taqozo qiladi. Bu o‘z navbatida mamlakatning har bir mintaqasini rivojini talab qiladi.

Quyida Amudaryo iqtisodiy rayonida yo‘qilg‘i-energetika, kimyo, qurilish resurslari va arzon ishchi kuchining, shuningdek qishloq xo‘jaligi ekinlari hosili(xususan, paxta tolasi, bog‘dorchilik va uzumchilik, sabzavot hamda poliz ekinlari)ni qayta ishlash imkoniyatlarining mavjudligi va kabi boshqa omillar

kelajakda xorijiy va mahalliy investorlarning ishonch bilan investitsiya kiritishi bilan sanoat tarmog‘ining rivojlantirish asos bo‘ladi [4].


Quyida Amudaryo iqtisodiy rayonitarkibiga kiruvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasining iqtisodiy yuksalishini ta‘minlash borasida mamlakatimiz hukumati tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan iqtisodiyotni yetakchi sohalari sanalgan sanoat va qishloq xo‘jaligining rivojlantirish asnosida tashkil qilingan “Nukus” EIZ hamda “Qoraqalpoq-agro” EIZlarning tashkil qilinishi so‘zimiz dalilidir. Birgina “Qoraqalpoq-agro” EIZni faoliyati tufayli mintaqada qishloq xo‘jaligini tumanlar miqyosida ma‘lum darajadagi yuksalish imkonini

# «ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

yaratiladi, hamda mehnat resurslarining ish bilan bandligini ta'minlanadi, ularning daromadlarning oshishiga erishiladi, pirovard natijadan aholining turmush tarzini o'sishiga olib keladi.

Mahalliy va xorijiy investitsiyalar evaziga, mavjud yer-suv resurslardan unumli foydalanish orqali sanoat ayrim sohalri uchun xom ashyo hisobladigan qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish - "Qoraqalpoq-agro" EIZsining asosiy vazifasi sanaladi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun, mazkur EIZ ishtirokchilariga qulayliklar yaratish, hamda "Qoraqalpoq-agro" EIZsining jozibadorligini oshirish maqsadida, iqtisodiy zonaga chet ellardan keltiriladigan zarur jihozlar uchun bojxona to'lovlaridan(qonunda nazarda tutilgan tartibda), shuningdek turli soliqlar(daromad va boshqa soliqlar)dan belgilangan tartibda ozod qilish imtiyozlari berilgan.



*1-rasm. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi EIZlar va ularning hududiy joylashuv karta sxemasi. [5]*

2020-yilning oxirida tashkil qilingan "Qoraqalpoq-agro" EIZsining rivojlanishida hududdagi mavjud infratuzilma, arzon ishchi kuchi, hamda muhim iste'mol bozorlari yaqinligining muhim ahamiyat kasb qiladi. Umumiy maydoni salkam 900ga yaqin 12 filialga ega mazkur EIZ kelajakda mintaqa aholisi va yaqin qo'shni mamlakatlarni zarur qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash maqsad qilingan [3].

"Qoraqalpoq-agro" EIZsi Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida 1-jadvalda ko'rsatilgan tartibda tumanlar miqyosida ma'lum hududlarda yer maydonlari ajratilish evaziga tashkil qilish nazarda

# «ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

tutilgan. Tumanlar orasida agro erkin iqtisodiy zonaga eng katta ulish Xo‘jayli tumani hissasi (176,44 ga), keyingi o‘rinlarda esa, Qo‘ng‘irot (118,9 ga) va Kegeyli (103,26 ga) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Eng kam maydon esa Ellikqal’a (10,0 ga), Mo‘ynoq (33,3 ga) va To‘rtko‘l (48,0 ga) tumanlari hissasi to‘g‘ri keladi.

1-jadval

## “Qoraqalpoq-agro” EIZga kiruvchi hududlar (tumanlar kesimida)

T/R	“Qoraqalpoq-agro” EIZning tumanlardagi hududlari	Maydon (gektar)
1	Amudaryo tumani “Qipchoq” massividagi yer maydoni	50,0
2	Bo‘zatov tumani “To‘rtko‘l” va “Erkindaryo” massivlardagi yer maydoni	50,4
3	Kegeyli tumani “Xalqobod” massividagi yer maydoni.	103,26
4	Qonliko‘l tumani “M. Nurmuxammedov” massividagi yer maydoni	63,9
5	Qo‘ng‘irot tumani “Qo‘ng‘irot” massividagi yer maydoni	118,9
6	Mo‘ynoq tumani “Orol” massividagi yer maydoni	33,3
7	Nukus tumani “Qattiq-oqar” massivi yer maydoni	73,8
8	Taxiatosh tumani “Qushchilik” MFY va “Jayxun” MFY yer maydoni	65,12
9	To‘rtko‘l tumani “G‘alaba” massivi yer maydoni	48,0
10	Xo‘jayli tumani davlat zaxirasi yer maydoni	176,44
11	Shumanay tumani “Shumanay” va “Dehqonobod” massivlaridagi yer maydoni	82,3
12	Ellikqal’a tumani “Toza-Amirobod” massivi yer maydoni	10,0
<b>Jami yer maydoni:</b>		<b>875,4</b>

Jadval statistik ma‘lumotlar [1] asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvalni tahlil qilish orqali mintaqaning ayrim tumanlarida, jumladan Beruniy, Qoraol‘zak, Chimboy va Taxtakopir tumanlarida, ushbu EIZ uchun yer maydonlari ajratilmagani ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi ancha rivojlangan janubiy tumanlarda Ellikqal’a, To‘rtko‘l va Amudaryo tumanlariga juda kam hududlar ajratilganini aniqlab olamiz.

**XULOSA.** Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Qoraqalpoq-agro” erkin iqtisodiy zonasida quyidagi tadbirlarni:

- “Qoraqalpoq-agro” EIZga ajratilgan qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish;
- mintaqadagi foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni qayta o‘zlashtirish orqali “Qoraqalpoq-agro” EIZ hududlarini doimiy kehgaytiirib borish;
- mazkur EIZda chorvachilik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasini rivojlantirish;

- “Qoraqalpoq-agro” EIZ amalga oshiriladigan qishloq xo‘jaligi sohasidagi loyihalarning samaradorligini ta’minlash;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi EIZlarga xorijiy investorlarni keng jalb qilish va investitsiyalarni samarali o‘zlashtirish;
- EIZning eksport salohiyatini oshirish, sanoat korxonalarining to‘liq quvvatda ishlashiga ko‘maklashish;
- “Qoraqalpoq-agro” EIZsida investitsiya va infratuzilma loyihalarining o‘z vaqtida ishga tushirilishini ta’minlash;
- ishtirokchi tomonlarning muammoli masalalarini tezkor hal qilish choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi “2020 - 2023-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4889-son Qarori.
2. Amanov A. K. et al. “Qoraqalpoq-Agro” erkin iqtisodiy zonasining iqtisodiy-geografik xususiyatlari //Экономика и социум. – 2021. – №. 12-1 (91). – С. 74-81.
3. Amanov A. K., Nazarov D. M. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi erkin iqtisodiy zonalari va ularning rivojlanish tendensiyalari //Экономика и социум. – 2024. – №. 2 (117)-1. – С. 97-101.
4. Amanov A. K., Nazarov D. M. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlarning iqtisodiy geografik xususiyatlari //Экономика и социум. – 2024. – №. 2 (117)-1. – С. 102-105.
5. Amanov A.K. “Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi erkin iqtisodiy zonalarning mintaqqa iqtisodiyotining rivojlanishidagi o‘rni”. Qoraqalpoqiston davlat universiteti. “Zamonaviy geografik tadqiqotlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlanishi, tabiatdan oqilona foydalanish va turizm masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Nukus 26-27 oktabr 2021.